

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

RAXIMOVA DILFUZA MIRZAKASIMOVNA

**O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

UO'K: 338.48-6:7/8(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences

Raximova Dilfuza Mirzakasimovna

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari..... 3

Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна

Перспективы развития паломнического туризма в Узбекистане.....29

Rakhimova Dilduza Mirzakasimovna

Prospects for the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan..... 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RAXIMOVA DILFUZA MIRZAKASIMOVNA

**O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi
(www.tsue.uz) va "Ziynet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar

Axmedov Ikrom Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Astanakulov Olim Tashtemirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar
beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning
2025-yil "3" kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom
Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (183) raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" kuni tarqatildi.
(2025-yil "19" kuni soat 11⁰⁰ da) 106 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosida bir martalik ilmiy
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

U.V.G'afurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosida bir martalik ilmiy
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

A.A. Eshtayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosida bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi bir martalik ilmiy
seminar raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida ziyorat turizmini rivojlantirish diniy, madaniy va iqtisodiy omillarning o'zaro uyg'unligi asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan xizmatlar segmentini kengaytirish, mehnat bilan bandlikni oshirish va infratuzilmaviy investitsiyalarni jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Bu turdagi turizm nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirish, balki mahalliy iqtisodiyotga turli xizmatlar – transport, turar joy, ovqatlanish va savdo sohalari orqali multiplikativ ta'sir ko'rsatib, jami ichki mahsulot o'sishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, xalqaro ziyoratchilar oqimining barqaror oshishi turistik brendning shakllanishi va mamlakatlar o'rtasidagi madaniy muloqotni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi. UN Tourism hisobotiga ko'ra, o'tgan yilda dunyo bo'ylab 1,4 milliarddan ortiq xalqaro sayohatlar amalga oshirildi, bu esa 2023-yilga nisbatan 11 foizlik o'sishni ko'rsatadi. Turizm tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yilda 10 foizga teng bo'lib, umumiy qiymati 11,1 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yildagi rekorddan 7,5 foizga yuqori¹. Shu bilan birga jahonda iqtisodiy o'sish, bandlik darajasining ortishi hamda xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlashda ziyorat turizmini rivojlantirish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Jahonda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari diniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish modellarini ishlab chiqish, ziyoratchilarning xulq-atvorini tahlil qilish orqali maqsadli marketing strategiyalarini shakllantirish, infratuzilmaviy ta'minot va logistikani takomillashtirish, ziyorat turizmini mahalliy iqtisodiy tizimga integratsiyalashtirish orqali hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda raqamli texnologiyalar yordamida ziyorat tajribasini personallashtirish va boshqaruvni avtomatlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, dinlararo muloqot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ziyorat turizmining roli ham ilmiy izlanishlarda dolzarb yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, qator huquqiy va strategik hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining boy tarixiy-madaniy merosi, diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq muqaddas qadamjolari mavjudligi, mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi shaharlardagi muqaddas ziyoratgohlar ming yillik tarixga ega bo'lib, nafaqat mintaqaviy, balki jahon ziyorat turizmi xaritasida o'zining alohida o'rniga ega. O'zbekistonda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyektlari, 1257 ziyoratgohlar mavjud bo'lib, shundan 1183 tasi islomiy, 57 tasi xristian pravoslav, 8 ta xristian Rim katolik va 9 ta budda ziyoratgohlari mavjud. Ularni saqlab qolish borasida keng qamrovli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekiston ziyoratgohlari hamda tarixiy madaniy yodgorliklarini turizm sohalari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish, mavjud muammolarning ilmiy yechimlarini tadqiq

¹ <https://www.unwto.org>

etishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 15-fevraldagi 120-son "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"², shu bilan birgalikda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqotida ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm, shu jumladan, ziyorat turizmi sohasining nazariy asoslarini ishlab chiqishda xorijlik olimlar muhim hissa qo'shgan. Xususan, J. Makens, C.J. Bowen, P. Kotler, D. Lundberg, Ch.Y. Gee, D. Chey, M. Krishnamurthy kabi mutaxassislar o'z tadqiqotlarida turizm xizmatlarining shakllanish bosqichlari, mijozlar ehtiyojlari va xatti-harakatlari, turistik destinatsiyalarning jozibadorligi va xizmat sifati kabi masalalarni keng yoritganlar. Ularning ishlari ziyorat turizmi mahsulotining konseptual asoslarini tushinishda muhim manba hisoblanadi. Muqaddas ziyoratgohlar va ularni ziyorat qilish etiketi ijtimoiy-ma'naviy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida esa A.V.Babkin, K.A. Mazin, V.K. Yegorov, V.S. Senin, L.V. Baylagasov, M.I. Goppa, T.T.Xristov, N.I. Kabushkin, A.Yu. Aleksandrova, I.T. Balabanov, V.A. Kvartalnov, M.B. Birjakov singari olimlar tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, ziyoratchi sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va hududlarni resurs salohiyatidan foydalanish tahlil qilish masalalari chuqur o'rganilgan³.

²Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2021 y., 06/21/6165/0104-son; (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2021 y., 09/21/100/0169-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022 y., 06/22/52/0029-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 07/22/135/0148-son. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral. – № 22 (544).

³ Babkin A.B. Специальные виды туризма: учебное пособие – Ростов н/Д, 2008. 117с. – Мазин К.А. Паломничество и туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009.; Христов Т.Т. Религиозный туризм. Учебное пособие, Издательство: Academia, 2009. – 288 с.; Александрова А. Ю. Халяльный туризм: сущность, факторы и современные тенденции развития в мире. Halal tourism: essence, factors and modern trends in the world // Приоритетные направления и проблемы развития внутреннего и международного туризма в России. – 2018.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание

O'zbekiston olimlari orasida turizmning nazariy va amaliy asoslarini yoritishda A.A.Xudoyarov, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.A.Eshtayev, A.N.Norchayev, T.G.Ravshanov, Q.T.To'rayev, F.B.Xayitova, Z.B.Navruz-zoda, H.N.Navro'z-zoda, S.S.Ro'ziyev, B.Sh.Safarov, A.T.Mirzayev, Sh.S.Sayfutdinov kabi olimlarning va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatga ega⁴. Ularning ishlarida turistik resurslardan kompleks foydalanish, ziyorat turizmini rivojlantirish yo'nalishlari, turizmda xizmatlar integratsiyasi masalalari hamda ziyorat turizmini nazariy asoslari yoritilgan.

Mintaqaviy darajada hududlarning ziyorat turizmini rivojlantirishga oid masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, Mazkur dissertatsiyada aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, ziyorat turizmini infratuzilma, imkoniyatlar, mavjud muammolar va iqtisodiy mexanizmlar orqali rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash va amaliy yechimlar ishlab chiqish maqsad qilib olingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra "Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasida bajarilgan.

9-е переработанное и дополненное. – СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. – 576 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. 2004. – 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; М.Н.Дмитриев, М.Н.Забаева, Е.Н.Малыгина. Экономика туристского рынка: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям сервиса и туризма. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 311 с.; Л.В.Баумгарген. Управление качеством в туризме. Практикум: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2008. – 288 с.; Д.С.Ушаков. Экономика туристской отрасли: учебное пособие. – Ростов на Дону: «МарТ»; Феникс, 2010. – 446 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. – 160 с.

⁴Худояров А. Узбекистонда зiyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO "Complex Print", 2021.; Abdvohidov A.M. Turizmда электрон бизнес. Укув кулланма. – Т.: ТДИУ. Иктисодиёт, 2020. – 189 б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарканд вилояти мисолида). DSc. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2017. – 265 б.; Эштасев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). DSc. диссертация автореферати – Самарканд. 2019.; Ravshanov T.G. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari (Malayziya mamlakati misolida) //Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 56 b.; Q.T.To'rayev. "O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari" nomli dissertatsiya avtoreferati; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –Т.: ТДИУ, 2021 y. –248 б.; Navruz-zoda Z.B. Turistik hududlar negizida ziyorat klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari //Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Buxoro. 2021. – 140 б.; Рузиев С.С. Ўзбекистон маданият туризм бозори ва унинг истикболлари: – икт.ф.ан.ном. дисс. авторсф. 2009. – 21 б. Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.:СамИСИ, 2016. – 254 б.; Сайфуддинов Ш.С. Ўзбекистонда туризм соҳасини барқарор ривожлантиришнинг стратегияси/иктисод фанлари бўйича (PhD) диссертация авторефератию 2022.-62.; Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. – Самарканд: СамИСИ, 2006. –137 б.; Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом. – Самарканд: СамИСИ, 2006. –137 б.; Пардаев О.М. Менеджмент. Укув кулланма. – Т.: Фан ва технология, 2019. –248б.; Турсав Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. авторсф., 2011.– 38 с.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash va takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

ziyorat turizmining mohiyati va uning nazariy asoslarini tadqiq etish;
xorij mamlakatlarida ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tadqiq etish;

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish xususiyatlari va uning resurslari tahlil qilish;

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining hozirgi kundagi holatini tahlil qilish;

hududiy ziyorat turizm obyektlaridan foydalanishning samaradorligini o'rganish;

ziyorat turizmini rivojlantirishda sotsiologik tadqiqot tahlilini o'tkazish;

O'zbekistonda ziyorat turizmini tashkil etish va rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

hududiy ziyorat turizm salohiyatidan foydalanishda klaster modeli asosida baholash modelini ishlab chiqish;

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ekonometrik prognoz modeli ishlab chiqish, bunda ilmiy asoslangan prognozlar asosida ziyorat turizmi istiqbollarini belgilash bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda ziyorat turizmi bilan shug'ullanuvchi turizm korxonalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqaruv munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, zamon va makon, matematik va statistik, statistik guruhlash, ekspert baholash, iqtisodiy tahlilning an'anaviy modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ziyorat turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonlarni sayohat davomida ruhiy o'sish, o'z-o'zini anglash va ichki olamini boyitish xotirjamlikka erishish jarayoni hisoblanib, ziyorat nafaqat diniy, balki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida tushuntirish hamda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

ziyorat infratuzilmasining klasterlashuv darajasini aniqlashning besh jarayonli algoritmi asosida Toshkent shahridagi 8 ta asosiy ziyoratgohlarning ziyorat klaster indikatorini hamda klasterbopligi sifat darajasi "Muborak joy" (0-40 ball), "Ziyoratga arzigulik diniy obyekt" (41-70 ball), "Diniy-turistik jozibaga ega maskan" (71-85 ball), "Klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh" (86-100 ball) mezonlari orqali baholangan;

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Toshkent shahrining asosiy ziyoratgohlarini o'z ichiga olgan "Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ko'p omilli ekonometrik

modellarni qo'llash asosida 2028-yilga qadar o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"ziyorat turizmi" tushunchasiga yangicha yondashuv ishlab chiqilib, u ruhiy o'sish va shaxsiy taraqqiyot omili sifatida talqin etilgan;

ziyorchilarning maqsad va motivatsiyasiga ko'ra tasniflash tizimi asoslangan;

"Toshkent Islom merosi" ziyorat klasterini tashkil etish bo'yicha amaliy taklif ishlab chiqilgan;

Toshkent shahridagi tarixiy va diniy maskanlarning hududiy yaqinligi, infratuzilma holati, tarixiy-madaniy salohiyati asosida shakllantirilgan;

ziyoratgohlarning besh jarayonli 4 toifadagi "muborak joy", "ziyoratga arzigulik diniy obyekt", "diniy-turistik jozibaga ega maskan" va "klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh" sifat darajalariga ajratilgan baholash mezonini ishlab chiqilgan;

"Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida UN Tourism, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning rasmiy statistik ma'lumotlaridan keng foydalanilganlik, tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, olingan xulosalar, takliflar va ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi vazirliklar va tashkilotlar tomonidan ma'qullanganligi orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflar O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbolini belgilash, mazkur muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan "ziyorat turizmi klasterbopligi"ni baholash metodikasi va klasterlashuv indikatorlari tizimini ishlab chiqish, Turizm qo'mitasi va turistik tashkilotlar tomonidan ziyorat maskanlarining jozibadorlik darajasini aniqlash, hududiy turizm rivojlanish strategiyalarini, jumladan, "Ziyoratga arzigulik diniy obyekt" yoki "Diniy-turistik jozibaga ega maskan" toifasiga kiruvchi obyektlar uchun alohida infratuzilma investitsiya dasturlari ishlab chiqilishda asosiy mezon sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda istiqbollarini belgilash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ziyorat turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonlarning sayohat davomida ruhiy o'sish, o'z-o'zini anglash va ichki olamini boyitish, xotirjamlikka erishish jarayoni nafaqat diniy, balki shaxsiy

rivojlanish vositasi sifatida tushuntirish hamda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy-nazariy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan "Ziyorat turizm menejmenti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2023-yil 14-iyuldagi 228-85-sonli guvohnoma). Mazkur, ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda ziyorat turizm istiqbollarini belgilashda, "ziyosat turizmi" tushunchasi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

ziyosat infratuzilmasining klasterlashuv darajasini aniqlashning besh jarayonli algoritmi asosida Toshkent shahridagi 8 ta asosiy ziyoratgohlarning ziyorat klasteri indikatorini hamda klasterbopligi sifat darajasi "Muborak joy" (0-40 ball), "Ziyoratga arzigulik diniy obyekti" (41-70 ball), "Diniy-turistik jozibaga ega maskan" (71-85 ball), "Klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh" (86-100 ball) mezonlari orqali baholash taklifi asosida ishlab chiqilgan ziyorat turizmi klasterbopligini baholash metodikasi amaliyotga joriy etilib, Toshkent shahridagi "Toshkent islom merosi" ziyorat klasteri tarkibiga kiruvchi muqaddas maskanlarda sinov tariqasida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-sentyabrdagi 03-10-17-10094-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida ziyoratgohlarning infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va tur paketlarini diversifikatsiyalash bo'yicha turistik tashkilotlar tomonidan amaliy choralar ishlab chiqilgan;

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Toshkent shahrining asosiy ziyoratgohlarini o'z ichiga olgan "Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish taklifidan "Tabarruk ziyorat" platformasiga Toshkent shahridagi ziyoratgohlarni ilmiy asoslangan kontentlar ma'lumotlari tayyorlash va platformaga joylashtirishda (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-sentyabrdagi 03-10-17-10094-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida "Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ko'p omilli ekonometrik modellarini qo'llash asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan o'rta muddatli prognoz parametrlaridan foydalanish taklifi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-martdagi 12-son bayoniga 9-ilova Turizm qo'mitasi tomonidan "Ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish Kengashining 2025-2027-yillarga mo'ljallangan ish rejasini"ning 2-bandi "Ziyoratga kelayotgan turistlarning talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini va transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish" bo'yicha ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-sentyabrdagi 03-10-17-10094-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari

o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalariga ko'ra 13 ta ish aprotatsiyadan o'tkazilgan bo'lib, 5 ta respublika va 2 ta xalqaro jurnallarda, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, ularning 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida to'plamlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqolalar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligini, uning maqsadi va vazifalarini tadqiqotning mavzusi va obyektni, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ifodalangan.

Dissertatsiyaning "**Ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ziyorat turizmining mohiyati va uning nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlarda ziyorat turizmini rivojlanishining o'ziga xos jihatlari va O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish xususiyatlari va uning resurslari o'rganilgan.

Ziyorat turizmi - turli dip vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ko'pchilik mualliflar tomonidan diniy turizmning bir turi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab sayyohlar turli xil tajribalarni, jumladan ma'rifat, bilim, ma'naviy va jismoniy farovonlikni yaxshilash va adrenalinni oshirishga intilishadi. Hozirgi adabiyotlar ziyoratni diniy va dunyoviy asoslarga ega bo'lgan yaxlit hodisa sifatida tushunadi. Jahondagi ziyorat turizmi rivojlangan davlatlarni o'ziga xos jihatlarni ko'rib chiqish mumkin. Bunga ko'ra:

Saudiya Arabistoni asosiy ziyorat yo'nalishlari Makka islomning eng muqaddas shahri bo'lib, Ka'ba joylashgan. Har yili millionlab musulmonlar Haj va Umra ziyoratlarini amalga oshirish uchun bu yerga tashrif buyuradilar. Saudiya Arabistonda turizmini mukammal elektron tizimi yo'lga qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Elektron platformalar "Eatmama", "Nusik" ilovasi ziyoratchilarga Umra va Haj uchun ruxsatnomalar olishda yordam beradi. Saudiya Arabistoni Haj va Umra vazirligining rasmiy saytni ham albatta shakllantirgan bo'lib, ziyoratga oid yangiliklar, qo'llanmalar va boshqa muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Misir Arab Respublikasi asosiy ziyorat yo'nalishlari Al-Azhar masjidi va universiteti hisoblanib, Islom olamining eng qadimiy ta'lim maskanlaridan biri

bo'lib, ilmiy ziyoratlar uchun takliflar ishlab chiqqan va yo'lga qo'ygan. Menda bugungi kunda turizmni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakat rasmiylari mehmonxona infratuzilmasini 40 ming xonaga kengaytirish dasturini ishga tushirdi. Misr 2024 yil oxiriga kelib rekord darajadagi 15,7 million sayohatchini qabul qildi⁵.

Tadqiqot jarayonida ziyorat turizmi yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan qator olimlar ishlarini ko'rib chiqib, ularni ta'riflari quyidagicha keltirib o'tilgan. (1-jadval)

1-jadval

Ziyorat turizm tushunchasiga turizm sohasidagi yetakchi olimlar, tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar⁶

Olimlar	Ta'rif
A.Babkin	"Ziyorat turizmi bo'yicha rossiyalik olim fikricha, ziyorat turizm bu biron bir dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning ziyorat qilish maqsadida muqaddas joylarga borishi hisoblanadi" ⁷ .
A.Xudoyarov	"Ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, ulug' ajdodlarimizga ehtirom ko'rsatish, ularning o'tmishdagi hayoti va yaratgan madaniy-ma'rifi hamda tarixiy merosi bilan tanishish, ularni xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o'z ichiga oladi" ⁸ .
Victor Turner va Edith Turner	Sayyoh yarim ziyoratchi, ziyoratchi esa yarim sayyohdir ⁹ . Bunga ko'ra ziyoratchilar va turistlar o'rtasidagi o'xshashlikka e'tibor qaratib, ziyoratni insonlarning muqaddas joylarga sayohati orqali odatdagi ijtimoiy hayotidan chiqib, ruhiy poklanish va yangi tajribalar orttirish jarayoni sifatida tasvirlaydilar. Ziyorat turizmi bu insonlarning muqaddas joylarga yo'l olib, odatdagi ijtimoiy hayotidan chiqib, ruhiy poklanish va yangi tajribalar orttirish jarayonidir.
Erik Cohen	"Ziyorat turizmi – bu diniy va madaniy qadriyatlarni anglash, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish hamda ruhiy tajriba orttirish uchun amalga oshiriladigan sayohatdir" ¹⁰ . Cohen diniy sayohat va madaniy turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi.
John Eade va Michael Sallnow	"Ziyorat turizmi muqaddas joylar atrofida yaratilgan ma'naviy va ijtimoiy muloqot tarmog'idir, bu jarayonda ziyoratchilar o'zaro tajriba almashadi va muqaddas joylarning ma'nosini qayta ochadilar". Bu ta'rif ziyoratning faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy tajriba ekanini ko'rsatadi ¹¹ .
Norman Geertz	"Ziyorat turizmi – bu insonlarning muqaddaslik va sadoqat ramzi sifatida o'z e'tiqodlarini amalda namoyon etish uchun qilgan sayohatidir". Geertz e'tiqod va diniy rasm-rusumlarni ziyoratning asosiy motivatsiyasi deb biladi ¹² .

Yuqorida berilgan ta'riflarning nazariy jihatlarini ko'rib chiqib, tadqiqotchi ishda ziyorat turizmiga ta'rifini va yondashuvini keltirib o'tgan. Bunga ko'ra

⁵ <https://www.dailynewsegypt.com/>

⁶ Muallif jamlanmasi asosida tuzilgan

⁷ Бабкин А. В. Специальные виды туризма: учебное пособие – Ростов н/Д., 2008. 117с

⁸ Худояров А. Ўзбекистонда зiyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. - 304 b

⁹ Victor Turner, Edith Turner. <https://archive.org>

¹⁰ <https://www.pilgrimagestudies.ac.uk/node/938>

¹¹ John Eade, Michael Sallnow <https://archive.org/details/>

¹² Norman Geertz <https://hypergeertz.jku.at>.

"ziyorat turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonlarning sayohat davomida ruhiy o'sish, o'z-o'zini anglash va ichki olamini boyitish, xotirjamlikka erishish jarayoni nafaqat diniy, balki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida tushuntirish hamda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ziyorat turizmidan sayyoh masjidlar, avliyolar va ulamolar maqbaralariga, muqaddas qadamjolariga, shuningdek tabiat resurslari bilan bog'liq bo'lgan joylarga sharhalar, buloqlar, ko'llar, daryolar kabilar ziyorat turizmi destinatsiyasi sifatida keltiriladi¹³.

Ziyorat turizmini tashkil qilishda ziyoratchi turistlarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda ekskursiyalar tuziladi. Bu ziyorat turizmi ekskursiyalari uzoq yoki qisqa vaqtga mo'ljallangan, bir yoki bir necha kunlik turistik dasturlarni o'z ichiga olishi mumkin. 2-jadvalda bunday sayohatlarning bir nechta turlari ko'rsatilgan:

2-jadval

Ziyoratchi-turistlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ziyorat turizmi ko'rinishlari¹⁴


Ziyoratchi-turistlarining turi	Maqsadi	Kutilayotgan natija
Asl ziyoratchilar	Ularning maqsadi faqat ziyoratni amalga oshirish bo'ladi. Masalan, Haj amallarini amalga oshiruvchilarga ushbu ta'rif muvofiq keladi.	Diniy majburiyatni bajarish, ruhiy poklanish.
Ziyorat turizmining salmoqli ulushiga ega ziyoratchilar	Bu yerda sayohatchilar faqat ziyorat qilmay, balki tarixiy joylarga ham borishi nazarda tutiladi. Masalan, Buxoroda so'fiylarning qadamjolarini ziyorat qilish bilan birga Ark, Setorai Moxi Xosa yoki boshqa tarixiy obyektlarni tomosha qilish	Shaxsiy o'sish va rivojlanish, ruhiy poklanish.
Ziyorat komponenti sezilarli, ammo maqsad sayohatning boshqa turlari bo'lgan ziyoratchilar	Masalan, ekstremal turizm orqali uzoq qishloqlardagi masjidlarini ziyorat qilish.	Shaxsiy o'sish, dunyoqarashni kengaytirish.

Ziyoratchi-turistlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda asl ziyoratchilar, ziyorat turizmining salmoqli ulushiga ega ziyoratchilar va ziyorat komponenti sezilarli, ammo maqsad sayohatning boshqa turlari bo'lgan ziyoratchilar maqsad va kutilayotgan natija bo'yicha farqlanadigan ziyoratchi-turistlar kategoriyalashuvi taklif etilgan, ya'ni ziyoratchilarning sayohat maqsadi va ulardan kutilayotgan natijalar asosida ularni: diniy e'tiqod asosida ziyorat qiluvchilar, ziyorat turizmini asosiy yo'nalish sifatida tanlovchilarga aylanganlar hamda ziyorat komponenti mavjud bo'lsa-da, sayohatning boshqa — madaniy, tarixiy yoki dam olish kabi maqsadlari ustuvor bo'lgan aralash turdagi sayyohlar sifatida guruhlash orqali ziyorat turizmini tahlil qilishning yanada chuqurlashtirilgan uslubi shakllantirilgan.

¹³ Muallifning ziyorat turizmiga bergan ta'rif

¹⁴ Jadval muallif ishlanmasi

Musulmon ziyoratchilar soni



1-rasm. Dunyo musulmon ziyoratchilar soni ko'rsatkichlari¹⁵

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda jahon bo'yicha musulmon ziyoratchilar soni keltirilgan, bunga ko'ra yildan yilga musulmon ziyoratchilar soni oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2000 yil 25 mln, 2010 yil 98 mln, 2017 yil 131 mln, 2018 yil 140 mln, 2020 yil 160 mln va 2026 prognoz ko'rsatkichlar bo'yicha 230 mln. kishiga o'sishi ko'rishimiz mumkin. Biz bu borada islom dini ziyoratgohlari miqyosida xalqaro hamjamiyatda bugungi kunda musulmon ziyoratchilar sonini o'rganib, ular tashrif buyurishi mumkin bo'lgan muqaddas ziyorat turizm yo'nalishlari qatorida O'zbekiston ziyoratgohlari ham o'rin egallashi nuqtai nazaridan tadqiqot olib borish maqsadimizdir. Ziyorat turizmini dunyo mamlakatlarida rivojlanishi u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchilarning soni inobatga olinib, turli konfessiyalarga tegishli muqaddas diniy ziyoratgoh obyektlari mavjudligi hisobga olinadi va ziyorat turizmiga ta'sir qiladi.

2-rasmda ziyorat turizmini oltita asosiy tamoyillari keltirib o'tilgan. Keltirilgan har bir tamoyil ziyorat turizmini rivojlantirishda asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Quyida biz ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari o'zaro bog'liq jihatini ko'rib chiqdik.

Ziyorat turizmi tamoyillari

1. Ruhiy-ma'naviy ahamiyat - diniy obyektlar - ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar - ma'naviy boyish va madaniy merosni asrash	2. Iqtisodiy rivojlanish - mehmonxona, restoran - savdo va xizmat ko'rsatish - mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish	3. Infrazuzilma rivoji - transport va yo'llar - masjid, taxoratxona - turistik markazlar - yo'l boshchilar xizmati
4. Targ'ibot va reklama - media va internet - ijtimoiy tarmoqlar - turizm ko'rgazmalari - diniy sayohat yo'nalishlari	5. Xalqaro hamkorlik - ikki davlat hamkorligi, kelishuvlar - DMS korxonalar - B2B turistik tashkilotlar - xalqaro tadbirlar - vizalarni yengillashtirish	6. Hukumat qo'llovi - davlat dasturlari - qonunchilikni takomillash - soliq imtiyozlari - turistik xavfsizlik

2-rasm. Ziyorat turizm tamoyillari¹⁶

¹⁵ Mintaqaviy turizm: o'quv qo'llanma / G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. - Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020.

¹⁶ Jadval muallif ishlanmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi¹⁷. Bundan tashqari Turizm qo'mitasi tomonidan sohadagi ekspertlar jalb qilinib, Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolari uchun "Tabarruk ziyorat" turizm platformasi 2023-yilda ishga tushirildi (www.tabarrukziyorat.uz). Bu platformani yuritishdan maqsad maqolalar, fotosuratlar va videolar orqali turkiy mamlakatlarning muqaddas qadamjolari va tarixiy merosi bilan bog'liq maskanlarini targ'ib qilish. Qadimiy obidalar, muhtasham masjidlar, o'rta asrga oid qal'alar va nafis koshinlar go'zalligini kashf etishdan iborat. Bu loyihani ishga tushirishga 1 mlrd so'm sarflandi. Biz raqamli asrda yashayotgan ekanmiz "Tabarruk ziyorat" platformasi ham zamon talabidir. Bunda 7 ta turkiy davlatlar O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya davlatlari qadamjolari joy olgan. Ushbu platformani joriy etish orqali turkiy davlatlarga tegishli bo'lgan ziyoratgohlar haqida ma'lumotlarni joylashtirgan holda o'zaro ziyorat turizm bo'yicha turistlar sonini oshirish maqsad qilingan. Ziyorat turizm platformasida yurtimizning 175 ta ziyoratgohlari joylashtirilgan.

Dissertatsiyaning "O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish holati va tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining hozirgi kundagi holati ko'rib chiqiladi, hududiy ziyorat turizm obyektlaridan foydalanishning samaradorligi ochib beriladi, ziyorat turizmini rivojlantirishda sotsiologik tadqiqot tahlili ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 26 apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023 yil 27 iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 yil 12 yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 yil 12 yanvardagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infrazuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 yil 18 iyundagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalardan kelib chiqib tadqiqotchi tomonidan o'rganilib, O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

¹⁷ lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.02.2021 yildagi 100-sonli qarori

2016-2024 yillarda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy, ichki sayyohlar soni va turizm xizmatlar eksporti hajmi ko'rsatichlari¹⁸

Yillar	Chet el fuqarolar soni	Ichki turistlar tashrifi soni	Turizm xizmatlari eksporti hajmi, ming AQSH dollari
2016	2070	8 855,2	430 746,2
2017	2847,9	10 562,1	546,9 00
2018	5346,2	12 489,2	1 041 088,6
2019	6748,5	14 748,0	1 313 032,3
2020	1504,1	3 534,1	260 987,4
2021	1 881,3	5 813,9	422 069,7
2022	5 232,8	5 813,9	1 610 099,7
2023	6 626,3	20 638,1	2 143 519,9
2024	10 280,0	22 670,0	3 489 000,0

O'zbekistondagi turizm sohasining 2016–2024 yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari ko'rsatmoqda. 2017-2024 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi 2017 yilda 546,9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda esa - 1 mlrd 041 million AQSh dollarini, 2019 yil 1 mlrd 313 mln AQSh dollarini, 2023 yilda 2 mlrd 143 million AQSh dollarini, 2024 yil 3.5 AQSh dollarini tashkil etdi.


2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda - 7 foizni tashkil qilib, 2,84 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2019 yil 6,7 million kishini, 2023 yilda 6,6 milliondan ortiq va 2024 yilda 10,28 million nafarga yetdi. Bu 2023 yildagi 6,63 million nafarga nisbatan 3,65 millionga yoki 55 foizga ko'pdir. Shuningdek, ichki turizmga ishtirok etganlar soni 22,67 million nafarni tashkil qildi, bu esa 2023 yilga nisbatan 2 million nafarga yoki 10 foizga o'sishni anglatadi¹⁹.

Xorijiy davlatlardan sayyohlar oqimi dinamikasini ko'rib chiqsak, quyida keltirilgan rasmda qo'shni va uzoq davlatlardan keluvchi sayyohlar ulushi keltirilgan bo'lib, bunga ko'ra qo'shni davlatlardan tashriflar 2018 yilda 87% ni, 2024 yilga kelib 79%ni, Yevropa va uzoq davlatlardan tashriflar 2018 yilda 5% ni, 2024 yilga kelib 9,2%ni tashkil qilgan. Davlatlar kesimida tahlil qilsak, Xitoydan 1,6 barobarga, Italiyadan 1,6 barobarga, Hindistondan 1,5 barobarga, Germaniyadan 1,3 barobarga, Janubiy Koreyadan 13 foiz va Turkiyadan 7,2 foizga ko'p sayyohlar tashrif buyurdi. Indoneziya va Malayziyadan ziyorat turizmi maqsadida tashrif buyurgan sayyohlar soni o'rtacha 2,5 barobarga oshdi.

O'zbekistonda madaniy meros va ziyorat turizmi obyektlari quyidagicha taqsimlangan: Madaniy meros obyektlari: 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda jami 8 210 ta madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, shundan 7 827 tasi davlat mulki va 383 tasi xususiy mulk hisoblanadi.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumoti

¹⁹ https://uza.uz/oz/posts/2024-yilda-davlat-byudjetidan-turizm-sohasi-uchun-483-milliard-som-ajratildi_708432



3-rasm. O'zbekiston hududlari kesimida moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari soni²⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 oktyabr 2019-yildagi 846-sonli qaror qabul qilindi. Bunga ko'ra Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari jami soni 8 210 ta. Shundan: arxeologiya yodgorliklari soni 4 748 ta, arxitektura yodgorliklari soni 2 252 ta, monumental san'at yodgorliklari 678 ta, diqqatga sazovor joylar 532 tani tashkil etadi.

Turizmni qo'mitasi tomonidan Toshkent shahrida ziyorat turizmini rivojlantirish, ro'yxatga olingan 15 ta diniy muassasaga tashrif xaritalari ishlab chiqildi. Indoneziya va Malayziya sayyohlik agentliklari va mehmonlariga mo'ljallangan halol ovqatlanish joylari, milliy oshxonalar, restoranlar, oilaviy tashrif joylari xaritasi tayyorlandi.

Hududiy ziyorat turizm obyektlaridan foydalanishning samaradorligini ko'rib chiqsak, O'zbekistonda bugungi kunda jami ziyoratgohlar 1257 tani tashkil etadi. Shundan 1183 tasi Islomiy, 57 tasi xristian pravoslav, 8 ta xristian Rim katolik va 9 ta budda ziyoratgohlari mavjud.

O'zbekistonda u yoki bu hududida ziyorat turizmini rivojlantirmoqchi ekanmiz, mamlakatning har bir hududi o'ziga xos jihatlarga ega va jozibadorligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotimiz davomida biz hududiy ziyorat turizm obyektlari salohiyati o'rganishda Toshkent shahrini ziyorat turizm obyektlari salohiyati tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Toshkent shahri ziyorat markaziga aylantirish uchun yetarlicha resurslarga ega. Toshkent shahrining jozibador ziyorat turizm obyektlari sifatida quyidagi ziyoratgohlar

²⁰ <https://davlat.uz/oz/madaniymeros>

“Hazrati Imom” majmuasi, “Shayx Xovandi Tohur” (Shayxontohur) majmuasi, “Suzuk ota” majmuasi, “Abulqosim madrasasi”, “Ko‘kaldosh madrasasi”, “Shayx Zayniddin bobo” maqbarasi, “Muin Xalfa bobo” maqbarasi, O‘zbekistondagi Islom Sivilizatsiyasi markazi kabilar o‘rganildi.

Tadqiqot ishida Toshkent shahridagi 8 ta ziyorat obyekti turistik ahamiyatga molik deb topib, bu obyektlarni o‘rganib, tahlil qildik. Jumladan bu obyektlar ichida yangi barpo etilgan Islom sivilizatsiya markazidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan boshlanib, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni davlatimiz rahbari uning poydevoriga tamal toshi qo‘ygan edi²¹.

Toshkent shahrini biz jahon turizm bozoriga nafaqat zamonaviy megapolis sifatida, balki, tarixiy, madaniy ziyorat maskani sifatida targ‘ib qilishimiz mumkin. Toshkent shahrida 2024 yilda tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar rejaga asosan 3100 ta bo‘lgan bo‘lsa amalda 4059,9 tani tashkil qiladi. 2024 yilda rejaga asosan turizm xizmatlari eksporti 1150 mln. AQSh dollari kutilgan bo‘lsa, amalda 1497,5 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan. Ya‘ni hududni turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlari o‘z natijasini bermoqda²².

Ziyorat turizmini rivojlantirishda sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi va uni tahlil qilishda turli usullardan foydalanildi. Jumladan, 427 ta respondentdan fikr-mulohaza va takliflarini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi. Olib borilgan sotsiologik so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi ziyorat maskanlariga tashrif buyurayotgan fuqarolar va xorijiy sayyohlar orasida ziyorat turizmi bo‘yicha yetarli darajada xabardorlik mavjud emas. Respondentlarning aksariyati (60% dan ortig‘i) ziyorat obyektlariga tashrif buyurishda diniy-ruhiy ehtiyoj, tarixiy qiziqish, oilaviy an‘analari asosida harakat qilishini bildirgan. Biroq ularning katta qismi (qariyb 70%) O‘zbekistondagi mavjud ziyorat joylari haqida batafsil ma‘lumotga ega emasligi, turizm xizmatlarining qulayligi va yetarililigi borasida muayyan kamchiliklar mavjudligini qayd etgan. Shuningdek, sotsiologik tahlil O‘zbekistondagi ziyoratgohlar infratuzilmasi, yo‘l ko‘rsatkichlari, gid-ekskursvodlar xizmati va mahalliy aholi ishtirokini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Aholining katta qismi ziyorat turizmi yo‘nalishida mahalliy tadbirkorlikni faollashtirish, “halol turizm” xizmatlarini keng joriy etish hamda axborot resurslarini yaxshilash tarafdori ekanini bildirdi.

Uchinchi bobda “O‘zbekistonda ziyorat turizmini tashkil etish va samarali rivojlantirish yo‘llari” deb nomlangan bo‘lib, unda ziyorat turizmini tashkil etish va rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish yo‘llari keltirib o‘tilgan, hududiy ziyorat turizm salohiyatidan foydalanishda klaster modeli asosida baholash natijasi berilgan va O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ekonometrik prognoz modeli asoslab berilgan. Ziyorat turizmini nafaqat ichki, balki xalqaro darajada rivojlantirishda mintaqalardagi ziyoratgohlar haqidagi axborot bazasini takomillashtirish va ularni targ‘ib qilish, shuningdek, Quvayt,

Qatar, Ummon, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Malayziya, Turkiya kabi davlatlardan ziyoratchilarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Indoneziyada Halol sayohat jihatlariga qat‘iy amal qilinadi. Bu davlat miqyosida tartibga solingan bo‘lib, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar maxsus Halol sertifikatiga ega bo‘lishi talab qilinadi (4-rasm).



4-rasm. Indoneziya Halol ziyorat turizmning asosiy komponenti²³

Yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda maqsadli auditoriyaga qarab taklif chiqarish zarur. Xususan, Hadisshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha Imom Buxoriy, Imom At-Termiziy maqbaralariga yoki ilmini o‘rganishga 25,1 mln. Yurtimizga ziyorat turizm yo‘nalishida dunyo bo‘yicha maqsadli auditoriya mavjud bo‘lib, shu kungacha 20 ta mamlakatda targ‘ibot qilingan va 395 ming ziyoratchi kelgan. Naqshbandiya tariqati yo‘nalishida 7 pir ziyoratgohlariga 15,8 mln maqsadli auditoriya, 13 ta mamlakatda targ‘ibot, 193,3 ming ziyoratchi kelgan. Moturidiylik maktabi yo‘nalishi Imom moturidiy va Imom Nasafiy ziyoratgohlariga 5,6 mln maqsadli auditoriya, 8 ta mamlakatda targ‘ibot 66,2 ming ziyoratchi kelgan. Yahudiy va buddaviy ziyoratchilari 10 ta mamlakatda targ‘ibot va 102,4 ming ziyoratchi tashrif buyurgan. Qo‘shni davlatlardan ham yurtimiz ziyoratgohlariga takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan Qozog‘iston Respublikasi fuqarolari Toshkent shahrida joylashgan Shayx Xovandi Tohur va To‘labiy (Qaldirg‘ochbiy) maqbaralariga ziyorat uchun tashrif buyurishadi.

Toshkent shahrida joylashgan asosiy ziyorat maskanlarini o‘z ichiga olgan “Ilmiy ziyorat turizmi” tur dasturi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan ushbu yo‘nalish ziyorat turizmini nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy, balki ilmiy tadqiqot va o‘quv-amaliy jihatlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Natijada Toshkent shahrida yangi turistik mahsulotni shakllantirish, ilmiy-ma‘naviy turizm segmentini rivojlantirish va xalqaro miqyosda O‘zbekistonning boy islomiy merosini keng targ‘ib etish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Islom sivilizatsiyasi markazida ta‘lim filiali ochish va tur dasturlarini shakllantirish konsepsiyasi 3 bosqichli dasturlar asosida 1 haftalik, 1 oylik va 6 oylik ilmiy ziyorat turizmi yo‘nalishlari asosida ishlab chiqish tavsia etiladi.

²¹ <https://gov.uz/oz/religions/news/view/34644>

²² Turizm qo‘mitasi Toshkent shahar turizm boshqarmasi ma‘lumoti

²³ <https://www.mastercard.com/news/ap/en/newsroom/press-releases/en/2024>

"Ilmiy ziyorat turizmi" tur dasturi tasnifi²⁴

4-jadval

Muddat	Mazmuni	Dastur yakuni	Turizm rivojiga hisssal
1 haftalik dastur	Islom sivilizatsiyasi markazida qisqa ma'ruzalar va seminarlar, Toshkentdagi asosiy ziyoratgohlarga tashrif, Qur'on ilmi, hadis ilmi, fiqh va tasavvuf asoslari bo'yicha intensiv kurs, qo'lyozma markazlariga ekskursiya. Maxsus diniy bilimga ega bo'lgan malakali gid hamrohligida.	Qatnashchilarga "Ilmiy ziyorat kursi – 1 hafta" sertifikat beriladi.	Qisqa muddatli diniy-ma'rifiy turizm oqimini ko'paytiradi; –Toshkent shahrining ziyorat maskanlari brendini mustahkamlaydi; –mahalliy iqtisodiyotga tezkor daromad keltiradi (transport, ovqatlanish, xizmatlar); –turistlarda O'zbekistonga qaytish tashrif buyurish motivatsiyasini shakllantiradi.
1 oylik dastur	Har hafta ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar (mamlakatimiz allomalarining islom merosiga qoldirgan ishlarini o'rganish, islom tarixi, falsafa, kalom, fiqh), Toshkent va atrof hududlardagi ziyorat joylariga ilmiy safarlar, qo'lyozmalar bilan ishlash bo'yicha seminarlar, tasavvuf ta'limotiga oid davra suhbatlari. Bu dasturda Toshkent-Samarqand-Buxoro-Qashqadaryo-Surxondaryo bo'ylab "Ilmiy ziyorat turizm" ekskursiyalarini maxsus diniy bilimga ega bo'lgan malakali gid hamrohligida yo'lga qo'yish	Qatnashchilarga "Ilmiy ziyorat – 1 oylik kurs" diplom sertifikat beriladi.	Hududlararo ziyorat turizm klasterini shakllantiradi; –O'zbekistonning turistik imijini ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida targ'ib qiladi; –mahalliy gidlar, transport va mehmonxona xizmatlariga barqaror talab yaratadi; –xalqaro hamkorlik uchun yangi ilmiy-turistik yo'nalish ochadi.
6 oylik dastur	Islom sivilizatsiyasi markazi fondlari bilan ishlash, mutaxassis olimlar rahbarligida ilmiy tadqiqot olib borish, Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlarga qisqa ilmiy safarlar, ilmiy maqola yoki loyiha tayyorlash, xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etish. "O'zbekiston Islom merosi" xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar mamlakatimiz bo'ylab tashkil etish.	"Ilmiy ziyorat – 6 oylik tadqiqot dasturi" sertifikat, tayyorlangan ilmiy maqola yoki loyiha.	O'zbekistonni mintaqaviy va global ilmiy ziyorat markaziga aylantiradi; –xalqaro ilmiy turizm oqimini shakllantiradi (olimlar, tadqiqotchilar, talabalar); –mahalliy ilmiy salohiyatni oshiradi, turizmni akademik tadqiqotlar bilan integratsiya qiladi; – uzoq muddatli turizm barqarorligini ta'minlaydi va turizm industriyasiga yuqori qo'shilgan qiymat olib kiradi.

Toshkent shahridagi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi negizida xorijiy va mahalliy ziyoratchilar uchun "Islom merosi ta'lim va ilmiy tadqiqot filiali"ni tashkil etish taklif etiladi. Bu filial orqali nafaqat qisqa muddatli ekskursiya-turlar, balki ilmiy-amaliy dasturlar ham yo'lga qo'yilib, turizmning ilmiy ziyorat turi sifatida yangi segmenti shakllantiriladi. Mazkur tashabbus quyidagilarga xizmat qiladi. Bunga ko'ra islom merosini chuqur o'rganishga

qiziqqan turistlar uchun uzoq muddatli ta'lim dasturlarini taklif qilish, ziyorat turizmini nafaqat diniy, balki ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda rivojlantirish, Toshkent shahrining ilmiy-ma'naviy markaz sifatidagi nufuzini oshirish, xorijiy olimlar, tadqiqotchilar, talabalar uchun ilmiy almashinuv maydonini yaratish. O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi negizida tashkil etilishi mumkin bo'lgan ilmiy ziyorat turizmi dasturi quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Dasturlar 1 haftalik, 1 oylik va 6 oylik variantlarda ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy-ziyosat turizmini rivojlantirish, islom merosini chuqur o'rganish va tadqiqotchilar uchun ilmiy izlanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Taklif etilgan dasturlar orqali ziyorat turizmini ilmiy-ma'rifiy yo'nalishda rivojlantirish, Toshkent shahrining xalqaro miqyosdagi ilmiy va ma'naviy markaz sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlashi mumkin. Ilmiy ziyorat dasturlari nafaqat madaniy va ma'naviy, balki iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ilmiy ziyorat dasturlariga chet ellik tadqiqotchilar, talabalar va olimlar kelishi hisobiga xorijiy valyuta tushumlarini olib kelishi, gidlik, tarjimonlik, transport, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarida yangi ish o'rinlari paydo bo'lishi, qo'lyozmalar markazi, hunarmandchilik buyumlari, mahalliy restoran va kafe, transport xizmatlaridan foydalanish mahalliy biznesga qo'shimcha daromad keltirishi, xalqaro talabalarga va tadqiqotchilarga ilmiy kurslar sotish orqali turizm bilan bir qatorda ta'lim eksporti, xizmatlar eksporti ham rivojlanishi, xalqaro ilmiy markazlar va fondlar bilan hamkorlikdan qo'shimcha grant va loyihalar jalb qilish imkoniyatlari uzoq muddatli investitsiyalar, turizmga qo'shilgan qiymatning boshqa tarmoqlarga (savdo, transport, xizmat ko'rsatish) tarqalishi multiplikativ effekt berishi ko'zda tutilgan.

Tadqiqot doirasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Toshkent shahrining asosiy ziyoratgohlarini o'z ichiga olgan "Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish taklifi ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotda maqsadli turistlar segmentini jalb etishda turistik hududlarni klaster modeli asosida baholash zarur deb topildi. Turistik klasterning tarkibiy qismlari sifatida tarixiy, tabiiy va diniy obidalar, transport tizimi, joylashtirish infratuzilmalari, sayyohlik agentliklari, gidlik xizmati, ovqatlanish va ko'ngilochar maskanlar, savdo nuqtalari hamda moliyaviy xizmatlar qayd etiladi. Klasterlashuv turizm xizmatlari sifatini oshiradi, hududiy iqtisodiyotni rivojlantiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Tadqiqot doirasida Toshkent shahridagi asosiy ziyorat obyektlarining klasterbopligi tahlil qilinib, hududiy ziyorat turizm klasterini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Raqobatbardosh klasterlarni yaratish uchun muqaddas joylar, tabarruk maskanlar va ziyorat hududlari baholanadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun "Ziyorat infratuzilmasining klaster darajasini baholash mezonlari va ularni tasniflash tartibi" ishlab chiqilgan. Baholash quyidagi 5 jarayonda amalga oshiriladi: 1.Etalon klasterlashuv darajasini aniqlash; 2.Baholash mezonlarini ishlab chiqish; 3.Real tavsiflovchi ko'rsatkichlarni shakllantirish va ularning salmog'ini belgilash; 4.Ekspert baholarini yig'ish; 5.Baholarni mezonlar bilan solishtirib, klasterlashga

²⁴ Jadval muallif ishlanmasi
20

yaroqlilik darajasini aniqlash. "Etalon ziyorat klasterbopligi" asosida 10 ta baholash mezonini ekspertlar tomonidan quyidagilar asosida aniqlandi. Bular ziyoratgohlar haqida keng axborot mavjudligi (katalog, buklet, gid hikoyasi va ilmiy asoslangan nashrlar, ma'lumotlar, axborotlar mavjudligi), infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi (ta'mir, obodonlashtirish, yo'llar holati), ziyoratgohlarning nufuzliyligi (ziyorchilar orasidagi mashhurlik, omma orasida nufuzi), ziyoratgohlarning sajdaga boplik darajasi (ziyoratgohlarda diniy rasm rusumlarni amalga oshirish shart-sharoitlarning mavjudligi, jumladan, mullosining bo'lishi, tahorat qilish mumkinligi, qabr oldida o'tirib duo o'qish hamda namoz o'qish uchun masjidining mavjudligi), ziyoratgohlarning muqaddaslik martabasi (maqomi quyidagi martabalardan qaysisiga mansubligi aniqlanadi: Payg'ambar, Sayid, Murshid, Avliyo, Vali, Hazrat, Shayx, Imom, Pir, Ota, Orif, Xo'ja, Sufiy, Amir, Oxun, Eshon, Olim yoki Mullo), obodligi (ziyoratgoh holati atrofi, ta'mir ta'labligi), ziyoratgohlarning tarixiyligi (qurilgan davri, Islom dunyosida ahamiyati), ziyoratgohlarning karomatligi (qadamjolarini ziyoratchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati yoki qadamjoning dunyoviy ahamiyatdorligi), obidalarining majmualiyligi (bir necha binodan iborat masjid, maqbara kompleks), ziyoratgohlarning ilmiy salohiyati (muqaddas joy asoschisining ilmiy salohiyati, chop etilgan va mavjud bo'lgan asarlari hamda ilmiy meroslari yuzasidan ularga baho beriladi).

Birinchi jarayonda ideal klasterlashuv darajasi aniqlanadi. U maskanning 10 ta sifat jihatidan iborat bo'lib, raqobatbardosh klaster yaratishda asos bo'ladi. (5-jadval)

5-jadval

Hududiy 8 ta ziyoratgohlarining ziyorat klaster darajasini baholash natijalari²⁵

Ziyoratgohlarning ziyorat klaster indikator holati	Ziyoratgohlarning ziyorat klasterbopligi sifat darajasi	Ziyorat klasterbopligining sifat darajasi xos muqaddas joylar nomi va soni	Ularning umumiy baholangan ziyoratgohlardagi ulushi, %
0-40 ball	"Muborak joy"	Mum Xalfa bobo maqbarasi, 1 ta	12,5
41-70 ball	"Ziyoratga arzigulik diniy obyekt"	Suzuk ota majmuasi, Shayx Zayniddin bobo maqbarasi, 2ta	25
71-85 ball	"Diniy-turistik jozibaga ega maskan"	Shayx Xovandi Tohur majmuasi, Abulqosim madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, 3ta	37,5
86-100 ball	"Klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh"	Hazrati Imom majmuasi, Islom Sivilizatsiyasi markazi, 2 ta	25
Jami:		8	100

²⁵ Muallif ishlanmasi
22

Har bir mezon 5 ta sifat darajasiga bo'linib, 0 dan 10 ballgacha baholanadi: 0-1 ball bilan har bir mezon bo'yicha ziyorat infratuzilmasining klasterlashuv juda past darajasini; 2-4 ball past darajasini; 5-6 ball o'rtacha darajasini; 7-8 ball me'yor darajasini; 9-10 ball yuqori darajasini ifodalaydi. Klasterlashuvda asosiy mezonlar - hudud (ziyorat maskanlarini destinatsiyaga aylantirish) va qiymat (turistik xizmatlar zanjirini tashkil qilish orqali integratsiya) hisoblanadi. Hazrati Imom majmuasi, Islom Sivilizatsiyasi markazi "Klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh" darajasiga mos keladi va ushbu joylar negizida ziyorat klasterlarini yaratish imkonini mavjud.

Ziyorat infratuzilmasining klasterlashuv darajasini aniqlashning besh jarayonli algoritmi asosida Toshkent shahridagi 8 ta asosiy ziyoratgohlarning ziyorat klaster indikator holati hamda klasterbopligi sifat darajasi "Muborak joy" (0-40 ball), "Ziyoratga arzigulik diniy obyekt" (41-70 ball), "Diniy-turistik jozibaga ega maskan" (71-85 ball), "Klasterlashuv darajasidagi ziyoratgoh" (86-100 ball) mezonlari orqali baholandi. Buni natijasida Toshkent shahridagi Hazrati Imom majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi 86-100 ball, Shayx Xovandi Tohur majmuasi, Abulqosim madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi 71-85 ball, Suzuk ota majmuasi, Shayx Zayniddin bobo maqbarasi 41-70 ball, Muin Xalfa bobo maqbarasi 0-40 ball ziyoratgohlarning ziyorat klaster indikator holati aniqlandi.

Mazkur ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari doirasida turistik xizmatlar bozoridagi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik model asosida o'rganilgan (6-jadval).

6-jadval

O'zgaruvchi omillarning tavsiflovchi statistikasi²⁶

	lnY	lnX ₁	lnX ₂	lnX ₃	lnX ₄	lnX ₅
N	Valid	9	9	9	9	9
	Missing	0	0	0	0	0
Mean	8,271776	6,618146	4,114280	4,713273	6,812856	7,728792
Median	8,562701	6,576469	4,169761	4,789988	6,948033	7,720461
Mode	7,315949 ^a	5,706445 ^a	3,020424 ^a	3,749504 ^a	5,561066 ^a	6,182084 ^a
Std. Deviation	,6751107	,665045	,516778	,452603	,865713	,889384
Variance	,456	,442	,267	,205	,749	,791
Skewness	-,151	,081	-1,066	-,906	,083	-,643
Std. Error of Skewness	,717	,717	,717	,717	,717	,717
Kurtosis	-1,541	-1,387	1,857	2,518	-1,179	-,530
Std. Error of Kurtosis	1,400	1,400	1,400	1,400	1,400	1,400
Minimum	7,315949	5,706445	3,020424	3,749504	5,561066	6,182084
Maximum	9,237955	7,628517	4,762173	5,399971	8,157370	8,829079

Model qurishda 2016-2024-yillar davomida shakllangan statistik ma'lumotlardan foydalanilgan. Quyida keltirgan o'zgaruvchilar asosida logarifmik shaklda berilgan statistik tavsif (Descriptive statistics) natijalari ilmiy asoslangan. Logarifmik transformatsiya statistik tahlilni yanada barqaror qilish, nisbatdagi munosabatlarni o'rganish va dispersiyani kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi.

²⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko'p omilli ekonometrik modelning noma'lum parametrlarini hisoblashda SPSS dasturidan foydalanilgan hamda ARIMA modeli orqali o'zgaruvchilar prognoz qilingan. 6-jadvalda, $\ln(y)$ - umumiy turistlar sonining logarifmi (ming kishi), $\ln(x_1)$ - ziyorat turizmi bo'yicha kelgan turistlar sonining logarifmi (ming kishi), $\ln(x_2)$ - turizmga davlat xarajatlari logarifmi (mlrd so'm), $\ln(x_3)$ - turizm sohasida band bo'lganlar logarifmi (ming kishi), $\ln(x_4)$ - xalqaro turizm daromadlari logarifmi (mln AQSh dollari), $\ln(x_5)$ - turizm infratuzilmasi subyektlari sonining logarifmini ifodalaydi. $\ln(y) = 8.27$ - prognozga bo'lgan davr bo'lib, o'rganilgan davrda umumiy turistlar sonining logarifmik qiymati yuqori bo'lgan, ya'ni yildan yilga o'sish ko'rsatkichi hisoblanadi. $\ln(x_1) = 6.61$ - ziyorat maqsadidagi turistlar soni ham umumiy turistlar soniga nisbatan pastroq bo'lsada, o'rtacha darajasi barqaror hisoblanadi. $\ln(x_5) = 6.81$ - xalqaro turizm daromadlari yuqori bo'lishini ko'rsatadi va bu o'zgaruvchi asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Keyingi bosqichda O'zbekiston Respublikasi turizm xizmatlar bozoriga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Umumiy holda ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$\ln y = \ln \beta_0 + \beta_1 \ln x_1 + \beta_2 \ln x_2 + \dots + \beta_n \ln x_n + \varepsilon$ (1) bu yerda $\ln y$ - natijaviy omil, $\ln x_i$ - ta'sir etuvchi omillar va ε - tasodifiy xatolikni ifodalaydi. β_0 - erkin had (constant) bo'lib, barcha omillar $x_1, x_2, \dots, x_n$ 0 ga teng bo'lganda natijaviy ko'rsatkich y ning qiymatini bildiradi. $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ - regressiya koeffitsientlari bo'lib, har bir mustaqil o'zgaruvchining (ta'sir etuvchi omilning) natijaviy omilga ta'sir kuchi va yo'nalishini ko'rsatadi.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma'lum parametrlarini aniqlashda ko'p omilli regressiya modeli qo'llaniladi (7-jadval).

7-jadval

Logarifmik ko'p omilli regressiya natijalari²⁷

Model		Unstandardized Coefficients		Standardized Coefficients		t	Sig.
		B	Std. Error	Beta			
1	(Constant)	3,378	1,176			2,873	,064
	$\ln X_1$	,324	,417	,319	,777	,494	
	$\ln X_2$	,460	,389	,352	1,182	,323	
	$\ln X_3$	-,156	,322	-,105	-,484	,662	
	$\ln X_4$	,592	,406	,760	1,461	,240	
	$\ln X_5$	-,316	,204	-,417	-,552	,219	

a. Dependent Variable: $\ln y$

7-jadval ma'lumotlaridan foydalanib ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishini keltiramiz:

$$\ln(y) = 3,378 + 0,324 \cdot \ln(x_1) + 0,460 \cdot \ln(x_2) - 0,156 \cdot \ln(x_3) + 0,592 \cdot \ln(x_4) - 0,316 \cdot \ln(x_5),$$


(2)

Hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, u umumiy turistlar sonining logarifmik ifodasi ($\ln y$) va turizmga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. 7-jadvalda logarifmik model bo'lib, har bir koeffitsiyent quyidagicha talqin qilinadi:

²⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$\ln X_1$ - Ziyorat turizmi bo'yicha kelganlar soni koeffitsiyenti = 0.324 $\rightarrow x_1$ 1% ga oshsa, y o'rtacha 0.324% ga oshadi. $\ln X_2$ - Turizmga davlat xarajatlari koeffitsiyenti = 0.460 $\rightarrow x_2$ 1% ga oshsa, y o'rtacha 0.46% ga oshadi. $\ln X_3$ - Turizmga band bo'lganlar soni koeffitsiyenti = -0.156 $\rightarrow x_3$ 1% ga oshsa, y o'rtacha 0.156% ga kamayadi (salbiy ta'sir). $\ln X_4$ - Xalqaro turizm daromadlari koeffitsiyenti = 0.592 $\rightarrow x_4$ 1% ga oshsa, y o'rtacha 0.592% ga oshadi. $\ln X_5$ - Turizm infratuzilmasi subyektlari soni koeffitsiyenti = -0.316 $\rightarrow x_5$ 1% ga oshsa, y o'rtacha 0.316% ga kamayadi. (salbiy ta'sir).

Keyingi bosqichda ARIMA modeli orqali o'zgaruvchilar prognoz qilingan. ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeli - bu statistik tahlil va prognozlashda keng qo'llaniladigan vaqt qatorlari modelidir. Ushbu 5-rasmda ziyorat turistlar soni (X_1) bo'yicha kelgusi yillar uchun prognozlarni ko'rsatadi. Unda mamlakatimizda ziyorat turistlar soni 2025-yilda 1,686.8 ming kishiga, 2026-yilda 1,828.1 ming kishiga, 2027-yil 1,969.4 ming kishiga va 2028-yilda esa 2,110.7 ming kishiga yetishi prognoz qilingan. Ziyorat turistlar soni (ming kishi) 2016-yilda 414 ming bo'lgan bu ko'rsatkich 2024-yilda 2,06 mingga yetgan. Prognozga ko'ra, 2028-yilda bu ko'rsatkich 2,110 mln bo'ladi. Ziyorat turizmi mamlakatdagi madaniy va diniy meros obyektlari hisobiga o'smoqda.



5-rasm. Ziyorat turistlar soni (X_1) bo'yicha kelgusi 2025-2028-yillar uchun prognozlar²⁸.

Lekin bu o'sish umumiy turizm o'sishiga nisbatan sustroq. Bu turizm diversifikatsiyasi yo'nalishida faol ish olib borilayotganini va boshqa turistik mahsulotlarning ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Quyidagi 8-jadvalda 2025-2028 yillar uchun ARIMA modeli asosida prognoz qilingan turizm sohasiga oid ko'rsatkichlar keltirilgan.

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

8-jadval
Turistik xizmatlar bozoriga ta'sir etuvchi omillarning prognoz hisob-kitoblari
qiymatlari²⁹.

Yillar	Y (Umumiy turistlar soni, ming kishi)	X1 (Ziyorat turistlar soni)	X2 (Turizm sohasidagi davlat xarajatlari, mlrd so'm)	X3 (Turizmning bandlikdagi to'g'ridan to'g'ri hisssasi, ming kishi)	X4 (Turizm xizmatlari eksporti hajmi, mln AQSh dollari)	X5 (Turizm infratuzilma obyektlar soni)
2016	2070	414	20,5	95,9	430,7	484
2017	2847,9	570	42,5	110,2	546,9	749
2018	5346,2	718	58,8	120,3	1041,1	1579
2019	6748,5	1349,7	68,8	121,3	1313	2254
2020	1504,1	300,8	54,3	42,5	260,1	2162
2021	1881,3	376,2	64,7	90,7	422,1	3883
2022	5232,8	1046,6	79,8	122,2	1610,1	4147
2023	6626,3	1325,2	104,3	164,5	2143,5	5276
2024	10280	2056	117	221,4	3489	6830
2025*	11894,6	1686,8	126,7	227,1	3668,4	7134,5
2026*	12710,0	1828,1	136,9	237,8	3956,9	7896,4
2027*	13954,5	1969,4	147,1	248,5	4245,5	8658,2
2028*	14968,6	2110,7	157,2	259,1	4534,1	9419,8

Ushbu prognozlar asosida turizmning iqtisodiy rivojlanishi, davlatning roli, infratuzilmaning kengayishi hamda bandlik va eksport hajmidagi o'zgarishlar haqida ilmiy asoslangan tahlilni keltiramiz. Umumiy turistlar soni (ming kishi) da 2016–2019 yillarda barqaror o'sish kuzatilgan bo'lib, 2019-yilda 6,7 mln turistga yetgan. 2020-yilda pandemiya sababli keskin pasayish (1,5 mln) yuz bergan. 2021-yildan boshlab asta-sekin tiklanib, 2024-yilga kelib 10,28 mln turistga yetgan. 2028-yilga kelib 15 mln. ga yetadi. Bu esa 2024-yilga nisbatan 46 % dan ortiq o'sishni anglatadi. Bunday o'sish mamlakatning turizm siyosati, infratuzilma rivoji, va xalqaro aloqalarning kengayishi bilan izohlanadi.

Ziyorat turistlar soni (ming kishi) 2016-yilda 414 ming bo'lgan bu ko'rsatkich 2024-yilda 2,06 mingga yetgan. Prognozga ko'ra, 2028-yilda bu ko'rsatkich 2 110 mln bo'ladi. Ziyorat turizmi mamlakatdagi madaniy va diniy meros obyektlari hisobiga o'smoqda. Turizm xizmatlari eksporti hajmi 2016-yilda 430,7 mln dollar bo'lgan eksport hajmi, 2024-yilda 3,49 mlrd dollarni tashkil etadi. Prognozga ko'ra, 2028-yilda bu ko'rsatkich 4,53 mlrd dollarga yetadi.

Dissertatsiyada O'zbekiston sharoitida turizm rivojiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar kompleks tahlil qilinib, foiz ko'rinishidagi elastiklik koeffitsiyentlari orqali baholovchi regresion model ishlab chiqildi. Model natijalari asosida quyidagi nazariy va amaliy jihatlar aniqlanib, ilmiy yangilik sifatida asoslanadi. Modelga ko'ra, eng kuchli ijobiy ta'sir xalqaro turizm daromadlari va davlat xarajatlari tomonidan kuzatiladi. Aksincha, bandlik va infratuzilma ko'rsatkichlarining salbiy ta'siri, ushbu resurslardan foydalanish samaradorligining pastligini ko'rsatadi. Shu bois, infratuzilmani sifatlan yaxshilash va bandlikni me'yoriy boshqarish muhim hisoblanadi. Umumiy ishlab chiqilgan model asosida umumiy turistlar soniga ta'sir etuvchi omillar:

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
26

Ijobiy ta'sirga ega omillar:

ziyosat turizmi bo'yicha kelganlar soni 1% ga oshishi umumiy turistlar sonini o'rtacha 0.324% ga oshirishi aniqlangani, ushbu turizm yo'nalishi O'zbekistonda asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri ekanini ko'rsatadi;

davlat tomonidan turizmga ajratilgan xarajatlarning 1% ga ko'payishi umumiy turistlar sonining 0.460% ga o'sishiga olib keladi. Bu esa byudjet mablag'larining turizmni rivojlantirishdagi muhim rolini isbotlaydi;

xalqaro turizm xizmatlari daromadlari 1% ga ortganda umumiy turistlar sonining 0.592% ga oshishi aniqlanib, eksportga yo'naltirilgan xizmatlar va ularning sifatli ko'rsatilishi orqali turist oqimi kuchayishini tasdiqlaydi.

• Salbiy ta'sirga ega omillarga turizm sohasida band bo'lganlar sonining 1% ga ko'payishi umumiy turistlar sonini 0.156% ga kamaytirishini ko'rsatmoqda. Bu holat, mehnat unumdorligining pastligi, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yoki ortiqcha byurokratiya mavjudligini anglatadi. Turizm infratuzilmasi obyektlari sonining 1% ga oshishi umumiy turistlar sonini 0.316% ga kamaytirgan. Bu natija, infratuzilmaning soni emas, balki sifati va joylashuvi muhimroq ekani, hamda ayrim obyektlarning foydalanilmayotgani yoki samarasizligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bugungi kunda musulmon aholisining soni 2 mlrd.dan oshiq kishini, ya'ni dunyo aholisining qariib 25 % ni tashkil etmoqda³⁰.

Jahon halol turizm bozorida yirik ekspertlardan sanalgan Crescent Rating agentligining hisobotida³¹ musulmon sayyohlik bozorining o'sishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar deb belgilangan:

musulmon aholining ko'payishi;

o'sayotgan o'rta sinf va mavjud daromadlarning ko'payishi;

aloqa texnologiyalari tufayli sayohat to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanish;

musulmonlar uchun do'stona sayohat xizmatlari va imkoniyatlarining ko'payishi;

halol turizm haqida xabardorlik darajasi oshgani sababli, musulmon va musulmon bo'lmagan mamlakatlarda halol turistik mahsulotlar takliflari tarqalishi;

musulmon mamlakatlarining rivojlanayotgan iqtisodiyoti kelajakda ish safari hajmini ko'paytiradi degan qat'iy bashoratlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmining rivojlanishi nafaqat turistik oqimni oshiradi, balki iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytiradi. Xususan, ziyorat joylariga yaqin joylashgan hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi sezilarli darajada faollashgan. Olingan natijalar asosida, resurslarni (davlat xarajatlari, turizm xizmatlari, ziyorat obyektlari) samarali yo'naltirish orqali turistlar sonini oshirish imkoniyati aniqlanadi. Shuningdek, mavjud infratuzilma va inson resurslarining sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi uchun asos bo'ladi.

³⁰ Mintaqaviy turizm o'quv qo'llanma / G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy"
2020.

³¹ Global Muslim Travel Index 2018 <https://www.crescentrating.com/>

XULOSA

Dissertatsiya ishida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi va ularning ilmiy mazmuni asoslab berildi.

1. Ziyorat turizmi ko'p qatlamli hodisa sifatida shakllangani aniqlandi. Unda diniy e'tiqod, ma'naviy poklanish, shaxsiy rivojlanish, madaniy-ma'rifiy boyliklar bilan tanishish kabi elementlar o'zaro uyg'unlashgan. Ushbu turizm turi faqat diniy sayohat sifatida emas, balki ruhiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan ham qamrovi kengdir.

2. Ziyorat turizmi O'zbekiston uchun katta iqtisodiy va madaniy imkoniyatlarni yaratib, mamlakat hududida joylashgan ko'plab muqaddas ziyorat maskanlari va tarixiy-madaniy meros obyektlari asosida mamlakat ziyorat turizmi bo'yicha xalqaro maydonda raqobatbardosh yo'nalishga ega ekanligi asoslangan.

3. Ziyorat turizmi O'zbekiston turizm industriyasining muhim tarmog'i hisoblanadi. U nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy merosni asrash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mahalliy aholi bandligini oshirishga xizmat qiluvchi ko'p funksiyali yo'nalishdir. Tadqiqot ishida Toshkent shahar ziyorat obyektlari klaster modeli asosida o'rganildi. Bunda ziyorat turizmi klasterbopligini baholash metodikasi ishlab chiqildi.

4. O'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijasida ziyoratchilar uchun eng muhim omillar sifatida xavfsizlik, toza muhit, qulay transport va xizmatlar sifati belgilandi. Shu bois, infratuzilmani rivojlantirishda ushbu ehtiyojlar markaziy o'ringa ega bo'lishi lozim.

5. Toshkent shahrida joylashgan asosiy ziyorat maskanlari — "Hazrati Imom" majmuasi, "Shayx Xovandi Tohur" (Shayxontohur) majmuasi, "Suzuk ota" majmuasi, "Abulqosim madrasasi", "Ko'kaldosh" madrasasi, "Shayx Zayniddin bobo" maqbarasi, "Muin Xalfa bobo" maqbarasi hamda "O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi"ni o'z ichiga olgan "Ilmiy ziyorat turizmi" tur dasturi konsepsiyasi ishlab chiqildi.

6. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ko'p omilli ekonometrik modellarni qo'llash asosida 2030 yilga qadar o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra ziyorat turizmi bo'yicha kelganlar soni 1% ga oshishi umumiy turistlar sonini o'rtacha 0.324% ga oshirishi, davlat tomonidan turizmga ajratilgan xarajatlarning 1% ga ko'payishi umumiy turistlar sonining 0.460% ga o'sishiga olib kelishi, xalqaro turizm xizmatlari daromadi 1% ga oshganda, umumiy turistlar soni o'rtacha 0.592% ga oshishi aniqlandi.

7. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Toshkent shahrining asosiy ziyoratgohlarini o'z ichiga olgan "Ilmiy ziyorat turizmi" yo'nalishida tur dasturi shakllantirish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish taklifi asoslandi. "Toshkent Islom merosi" ziyorat klasterini tashkil etish bo'yicha amaliy taklif va Toshkent shahrida "Toshkent Islom merosi" ziyorat klasterini tashkil etishning "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

8. Muqaddas ziyorat maskanlarida faoliyat yuritayotgan imom-xatib va diniy ulamolar uchun ziyorat turizmi sohasi bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni qamrab olgan amaliy-o'quv seminarlar, malaka oshirish kurslari va mahorat darslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/10.12.2019.1.16.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВА ДИЛФУЗА МИРЗАКАСИМОВНА

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В
УЗБЕКИСТАНЕ

08.00.17 - Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/Iqt3385 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «Зиенет» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель

Сайфугдинов Шухратжон Султонович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, профессор

Официальные оппоненты

Ахмедов Икром Акрамович
доктор экономических наук, профессор

Асганаккулов Олим Таштемирович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится в 12⁰⁰ часов 3 12 2025 г. на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/10.12.2019.1.16.01 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в центре информационных ресурсов Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрированный номер 1831). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан « 19 » 11 2025 года.

(протокол реестра № 126 от « 19 » 11 2025 года).



С.У. Мехмонов

Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

А.А. Эштаев

Председатель научного семинара при разовом научном совете на основе научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Развитие паломнического туризма в мировой экономике играет важную роль в расширении сегмента услуг с высокой добавленной стоимостью на основе гармоничного содействия религиозных, культурных и экономических факторов, повышении занятости и привлечении инфраструктурных инвестиций. Этот вид туризма не только удовлетворяет религиозные потребности, но и оказывает мультипликативный эффект на местную экономику через различные услуги - транспорт, проживание, питание и торговлю, внося вклад в рост валового внутреннего продукта. В частности, устойчивый рост потока международных паломников имеет стратегическое значение в формировании туристического бренда и укреплении культурного диалога между странами. Согласно отчету UN Tourism, в прошлом году было совершено более 1,4 миллиарда международных поездок по всему миру, что на 11% больше, чем в 2023 году. Доля туристической отрасли в валовом внутреннем продукте в 2024 году составила 10 процентов, а общая стоимость - 11,1 триллиона долларов США. Этот показатель на 7,5% выше рекорда 2019 года. В то же время развитие паломнического туризма становится важным направлением в обеспечении глобального экономического роста, повышении уровня занятости и укреплении межнационального культурного сотрудничества. Этот показатель на 7,5% выше рекорда 2019 года¹.

Приоритетные направления научных исследований, проводимых в мире по развитию паломнического туризма, направлены на разработку моделей охраны и устойчивого использования объектов религиозного наследия, формирование целевых маркетинговых стратегий путем анализа поведения паломников, совершенствование инфраструктурного обеспечения и логистики, оценку влияния паломнического туризма на региональное развитие посредством интеграции в местную экономическую систему, а также совершенствование механизмов персонализации паломнического опыта и автоматизации управления с помощью цифровых технологий. Вместе с тем, роль паломнического туризма в обеспечении межрелигиозного диалога и социальной стабильности также выступает как актуальное направление научных исследований.

Развитие паломнического туризма в Узбекистане признано одним из приоритетных направлений государственной политики, в связи с чем был принят ряд правовых и стратегических документов. Богатое историко-культурное наследие Республики Узбекистан, наличие священных мест, тесно связанных с религиозными ценностями, создают широкие возможности для развития паломнического туризма в стране. В частности, священные места паломничества в таких городах, как Бухара, Самарканд, Ташкент, имеют тысячелетнюю историю и занимают особое место не только на региональной, но и на мировой карте паломнического туризма. В

¹<https://www.unwto.org>

Узбекистане насчитывается более 8200 объектов культурного наследия, 1257 мест паломничества, из которых 1183 исламских, 57 православных, 8 римско-католических и 9 буддийских. Осуществляются широкомасштабные меры по их сохранению. Это требует интеграции мест паломничества и историко-культурных памятников Узбекистана с туристической отраслью. Соответственно, актуальное значение приобретают исследовательские работы, направленные на эффективную реализацию задач по развитию паломнического туризма в нашей стране и изучение научных решений существующих проблем.

Указы Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года No УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 9 февраля 2021 года No УП-6165 «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма», Постановления Президента Республики Узбекистан от 27 июля 2023 года No ПП-238 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере туризма и эффективной организации системы государственного управления в отрасли», от 26 апреля 2023 года No ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики и дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 февраля 2021 года No 100 «О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма», от 15 февраля 2018 года No 120 «Об эффективной организации работ по благоустройству святых мест, мест паломничества, мечетей и кладбищ»², а также другие нормативно-правовые документы в данной сфере в определенной степени послужат обеспечению выполнения поставленных задач в данном диссертационном исследовании.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики.»

Степень изученности проблемы. Зарубежные ученые внесли значительный вклад в разработку теоретических основ туризма, включая паломнический туризм. В частности, такие специалисты, как J. Makens, C.J. Bowen, P. Kotler, D. Lundberg, Ch.Y. Gee, D. Chey, M. Krishnamurthy в своих исследованиях широко освещали такие вопросы, как этапы формирования туристических услуг, потребности и поведение клиентов, привлекательность туристических дестинаций и качество обслуживания. Их работы являются важным источником для понимания концептуальных основ продукта

паломнического туризма. Священные места паломничества и этикет их посещения имеют социально-духовное значение. В странах Содружества Независимых Государств (СНГ) такие ученые, как А.В. Бабкин, К.А. Мазин, В.К. Егоров, В.С. Сенин, Л.В. Байлагасов, М.И. Гоппа, Т.Т. Христов, Н.И. Кабушкин, А.Ю. Александрова, И.Т. Балабанов, В.А. Квартальнов, М.Б. Биржаков глубоко изучили вопросы развития туристической инфраструктуры, повышения качества обслуживания паломников и анализа использования ресурсного потенциала регионов³.

Среди ученых Узбекистана особое значение в освещении теоретических и практических основ туризма имеют научные исследования, проведенные такими учеными, как А.А. Худояров, А.М. Абдувохидов, М.Т. Алиева, А.А. Эштаев, А.Н. Норчаев, Т.Г. Равшанов, К.Т. Тураев, Ф.Б. Хайитова, З.Б. Навруз-зода, Б.Н. Навруз-зода, С.С. Рузиев, Б.Ш. Сафаров, А.Т. Мирзаев, Ш.С. Сайфутдинов и другими исследователями⁴. В их работах освещены вопросы комплексного использования туристических ресурсов, направления развития паломнического туризма, интеграции услуг в туризме, а также

³Бабкин А.В. Специальные виды туризма: учебное пособие – Ростов н/Д., 2008.117с. Мазин К.А. Паломничество и туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009.; Христов Т.Т. Религиозный туризм. Учебное пособие, Издательство: Academia, 2009. – 288 с.; Александрова А. Ю. Халяльный туризм: сущность, факторы и современные тенденции развития в мире. Halal tourism: essence, factors and modern trends in the world //Приоритетные направления и проблемы развития внутреннего и международного туризма в России. – 2018.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. –176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное. – СПб.: Издательский дом «Гарда», 2007. –576 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. – Минск: Новое знание, 2004. – 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. –М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; М.Н.Дмитриев, М.Н.Забаева, Е.Н.Малыгина. Экономика туристского рынка: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям сервиса и туризма. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. –311 с.; Л.В.Баумгартер. Управление качеством в туризме. Практикум: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2008. –288 с.; Д.С.Ушаков. Экономика туристской отрасли: учебное пособие. – Ростов на Дону: «МарТ»; Феникс, 2010. –446 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. –160 с.

